



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

*VOL. 3 ISS:3 (2026)*

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI</b> <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	<b>O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH</b> <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	<b>ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS</b> <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	<b>QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI</b> <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	<b>SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI</b> <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	<b>SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	<b>TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH</b> <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	<b>KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI</b> <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	<b>XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	<b>MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	<b>KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH</b> <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	<b>XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	<b>XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	<b>ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	<b>XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56

## **“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI**

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



## MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti katta o'qituvchisi

Email: [dilfuzaxudaynazarova@gmail.com](mailto:dilfuzaxudaynazarova@gmail.com)

**Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Email: [mirazizdavronov@gmail.com](mailto:mirazizdavronov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada korxonalarda mehnat haqi hisobi va auditing zamonaviy metodologiyasini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda mehnat haqi hisobining iqtisodiy mohiyati, xodimlar bilan hisob-kitoblarni tashkil etishning xalqaro standartlarga asoslangan usullari hamda audit jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, IAS 19 "Xodimlarga beriladigan imtiyozlar" standarti asosida mehnat haqi hisobini yuritish, ichki nazorat tizimini rivojlantirish va avtomatlashtirilgan hisob dasturlarini joriy etishning afzalliklari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida korxonalarda mehnat haqi hisobi va auditing shaffofligi hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mehnat haqi hisobi, mehnat haqi auditi, MHS, IAS 19, xodimlarga beriladigan imtiyozlar, ichki audit, raqamli iqtisodiyot, avtomatlashtirilgan hisob tizimi, ish haqi kalkulyatsiyasi, moliyaviy hisobot.

**Abstract:** This article examines the issues of improving the modern methodology of payroll accounting and audit in enterprises. The study highlights the economic essence of payroll accounting, internationally based methods of organizing settlements with employees, and directions for improving audit processes through digital technologies. In addition, the advantages of maintaining payroll accounting based on IAS 19 "Employee Benefits", developing internal control systems, and implementing automated accounting software are analyzed. As a result of the research, scientific and practical recommendations aimed at increasing the transparency and efficiency of payroll accounting and audit in enterprises were developed.

**Keywords:** payroll accounting, payroll audit, IFRS, IAS 19, employee benefits, internal audit, digital economy, automated accounting system, payroll calculation, financial reporting.

**Абстрактный:** В данной статье исследуются вопросы совершенствования современной методологии учета и аудита заработной платы на предприятиях. В исследовании освещены экономическая сущность учета заработной платы, методы организации расчетов с работниками на основе международных стандартов, а также направления совершенствования аудиторских процессов с использованием цифровых технологий. Кроме того, проанализированы преимущества ведения учета заработной платы на основе стандарта IAS 19 «Вознаграждения работникам», развития системы внутреннего контроля и внедрения автоматизированных бухгалтерских программ. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на повышение прозрачности и эффективности учета и аудита заработной платы на предприятиях.

**Ключевые слова:** учет заработной платы, аудит заработной платы, МСФО, IAS 19, вознаграждения работникам, внутренний аудит, цифровая экономика, автоматизированная система учета, калькуляция заработной платы, финансовая отчетность.

### Kirish (Введение/Introduction).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishda mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat haqi esa ishlab chiqarish jarayonining ajralmas elementi sifatida nafaqat xodimlarning daromad manbai, balki korxonaning xarajatlar tarkibidagi eng muhim moddalardan biri hisoblanadi. Shu bois mehnat haqi hisobini to'g'ri tashkil etish va uning ustidan samarali nazoratni ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida o'rtacha oylik nominal ish haqi so'nggi yillarda barqaror o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib, 2020-yilda taxminan 2,6 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 4,5 mln so'mdan oshgan, 2024-yilda esa 5 mln so'mga yaqinlashgan. Bu esa korxonalarda mehnat haqi fondining hajmi ortib borayotganini va uni hisobga olish hamda nazorat qilishning ahamiyati ortayotganini ko'rsatadi. Zamonaviy sharoitda mehnat haqi hisobining murakkablashuvi, soliqa tortish tizimining takomillashuvi, ijtimoiy ajratmalar mexanizmining o'zgarishi hamda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ushbu sohada buxgalteriya hisobi va auditini yanada chuqur ilmiy asosda o'rganishni talab etmoqda. Ayniqsa, ish haqi hisob-kitoblarida xatoliklar, noto'g'ri soliqa tortish, yashirin ish haqi (konvert tizimi) kabi holatlar korxonalar moliyaviy natijalarining ishonchligiga

salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, xalqaro audit amaliyotida mehnat haqi hisobining to'g'riligini tekshirish, firibgarliklarni aniqlash va ichki nazorat tizimini baholash masalalari muhim o'rin egallaydi. Bu borada International Federation of Accountants tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar asosida auditni tashkil etish zarurati yanada ortib bormoqda. Biroq amaliyotda ushbu standartlarning to'liq qo'llanilmasligi, ichki nazorat tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi mehnat haqi hisobida muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).**

Mehnat haqi hisobi va auditing zamonaviy metodologiyasini takomillashtirish:

Mehnat haqi hisobi va auditini takomillashtirish masalasi korxonalarda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mehnat haqi hisobini tashkil etish nafaqat xodimlarga to'lovlarni hisoblash, balki korxonaning moliyaviy natijalarini shakllantiruvchi asosiy xarajat elementlaridan birini samarali boshqarishni ham nazarda tutadi. Shu sababli xalqaro amaliyotda mehnat haqi hisobi va auditing metodologik asoslarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1].

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari tizimida xodimlarga beriladigan to'lovlarni hisobga olishning asosiy tamoyillari IAS 19

“Employee Benefits” standartida belgilangan. Mazkur standart mehnat haqi, mukofotlar, pensiya majburiyatlarini va boshqa xodimlarga tegishli to'lovlarni tan olish hamda baholashning yagona uslubiyotini shakllantiradi. Tadqiqotchilar ushbu standartning qo'llanilishi korxonalarda mehnat xarajatlari hisobining shaffofligini oshirishini ta'kidlaydilar [2].

So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda mehnat haqi hisobini raqamlashtirish va avtomatlashtirish masalalari keng o'rganilmoqda. ERP va HRM tizimlarining joriy etilishi hisob-kitob jarayonlarini soddalashtirish, inson omili ta'sirini kamaytirish hamda mehnat haqi xarajatlari ustidan nazoratni kuchaytirish imkonini beradi. Deloitte va PwC ekspertlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalarni qo'llagan korxonalarda mehnat haqi hisobidagi xatolar sezilarli darajada kamaygan [3].

Mehnat haqi auditining zamonaviy metodologiyasida riskga asoslangan audit yondashuvi muhim o'rin egallaydi. Xalqaro audit standartlari, xususan ISA 315 va ISA 500 standartlari auditorlardan mehnat haqi hisobida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolik va firibgarlik xavflarini aniqlash hamda ularga mos audit protseduralarini ishlab chiqishni talab qiladi [4]. Bu esa auditning samaradorligini oshirish va moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ilmiy manbalarda mehnat haqi auditida ichki nazorat tizimining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, kuchli ichki nazorat tizimi mavjud bo'lgan korxonalarda mehnat haqi bilan bog'liq xatoliklar va noqonuniy operatsiyalar xavfi sezilarli darajada past bo'ladi [5]. Shu sababli zamonaviy audit metodologiyasi ichki nazorat tizimini baholashni auditning muhim bosqichlaridan biri sifatida ko'radi.

Shuningdek, xalqaro tajribada “continuous auditing” va “real-time auditing” yondashuvlari tobora keng qo'llanilmoqda. Ushbu metodologiyalar axborot texnologiyalari yordamida operatsiyalarni doimiy monitoring qilish va mehnat haqi hisobidagi xatolarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi [6]. Bu esa audit xarajatlarini kamaytirish bilan birga nazorat samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham mehnat haqi hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Buxgalteriya hisobi va audit tizimining xalqaro standartlarga moslashtirilishi mehnat haqi hisobining shaffofligini oshirish hamda investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qilmoqda [7].

Tadqiqotchilar mehnat haqi hisobini takomillashtirishda boshqaruv hisobi elementlarini joriy etish zarurligini ham qayd etadilar. Xususan, mehnat xarajatlari rejalashtirish, budjetlashtirish va samaradorlik ko'rsatkichlari bilan bog'lash korxonalar resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi [8].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mehnat haqi hisobi va auditining zamonaviy metodologiyasini takomillashtirish xalqaro standartlar, raqamli texnologiyalar, riskga asoslangan audit yondashuvi hamda kuchli ichki nazorat tizimini uyg'unlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin [9].

#### Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Ushbu tadqiqot “Mehnat haqi hisobi va auditining zamonaviy metodologiyasini takomillashtirish” mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, uning metodologik asosini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xalqaro audit standartlari, zamonaviy boshqaruv hisobi konsepsiyalari hamda mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Tadqiqotda mehnat haqi hisobini yuritish va audit qilish jarayonlarini zamonaviy iqtisodiyot talablariga mos ravishda takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks foydalanildi. Jumladan, **tahlil va sintez usuli** yordamida mehnat haqi hisobi va auditining nazariy asoslari, ularning tarkibiy elementlari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari o'rganildi. Ushbu yondashuv mehnat haqi hisobining mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilish va mavjud muammolarni tizimli ravishda aniqlash imkonini berdi.

**Induksiya va deduksiya usullari** asosida xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan mehnat haqi hisobi va audit metodologiyalarining umumiy qonuniyatlarini o'rganilib, ular asosida milliy amaliyot uchun ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv xalqaro tajribalarni O'zbekiston korxonalarini faoliyatiga moslashtirish imkonini berdi.

Tadqiqotda **qiyosiy tahlil usuli** muhim o'rin egalladi. Ushbu usul yordamida IAS 19 “Employee Benefits”, ISA 315 “Risklarni aniqlash va baholash”, ISA 500 “Audit dalillari” standartlari talablari amaldagi milliy hisob va audit amaliyoti bilan taqqoslandi. Natijada mehnat haqi hisobi va audit tizimlaridagi asosiy farqlar, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'nalishlari aniqlandi.

Shuningdek, **statistik va iqtisodiy tahlil usullari** qo'llanilib, korxonalarda mehnat haqi fondining tarkibi, ish haqi xarajatlari dinamikasi, mehnat unumdorligi va mehnat xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Ushbu tahlillar mehnat haqi xarajatlarning korxonalar moliyaviy natijalariga ta'sirini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida **sistemali yondashuv** asosida mehnat haqi hisobi va audit jarayoni yagona boshqaruv tizimining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi. Bunda xodimlarni ishga qabul qilish, ish vaqtini hisobga olish, ish haqi hisoblash, soliqlar va ijtimoiy ajratmalarni aniqlash, ichki nazorat va audit jarayonlari o'zaro bog'liq elementlar sifatida tahlil qilindi.

Bundan tashqari, **riskga asoslangan audit yondashuvi** qo'llanilib, mehnat haqi hisobida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklar va firibgarlik xavflari baholandi. Xususan, ish vaqtini noto'g'ri hisoblash, asossiz mukofotlar tayinlash, soxta xodimlar mavjudligi va soliq majburiyatlarini noto'g'ri hisoblash bilan bog'liq xavflar o'rganildi.

Tadqiqotda **modellash va ilmiy abstraksiyalash usullari** ham qo'llanilib, mehnat haqi hisobi va auditining takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi. Ushbu model xalqaro standartlar, raqamli texnologiyalar va zamonaviy audit yondashuvlarini integratsiyalash asosida shakllantirildi.

Shuningdek, **me'yoriy-huquqiy tahlil usuli** yordamida O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, Soliq kodeksi, “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni hamda xalqaro standartlarning mehnat haqi hisobi va auditiga oid talablari o'rganildi. Bu esa amaldagi tartiblarning xalqaro talablarga muvofiqlik darajasini baholash imkonini berdi. [10].

Umuman olganda, tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar mehnat haqi hisobi va auditining zamonaviy metodologiyasini takomillashtirish, xalqaro standartlar asosida samarali hisob va nazorat tizimini shakllantirish hamda korxonalarda mehnat resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

#### Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda mehnat haqi hisobi va auditini tashkil etishning metodologik asoslari tubdan takomillashib bormoqda. Zamonaviy xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat resurslarini boshqarish tizimining raqamlashtirilishi, elektron hujjat aylanishining keng joriy etilishi hamda avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlaridan foydalanish mehnat haqi hisobining aniqlik va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, korxonalarda “IC:Buxgalteriya”, ERP tizimlari, biometrik nazorat vositalari hamda elektron tabel tizimlarining qo'llanilishi mehnat haqi hisob-kitoblari ustidan operativ nazoratni kuchaytirishga imkon bermoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, korxonalarda mehnat haqi hisobi bilan bog'liq muammolarning asosiy qismi quyidagilar bilan izohlanadi:

- ish vaqti hisobining to'liq avtomatlashtirilmaganligi;
- ish haqi hisoblash algoritmlaridagi xatoliklar;
- xodimlarga beriladigan kompensatsiya va imtiyozlarning noto'g'ri tasniflanishi;
- ichki audit tizimining sustligi;
- xalqaro standartlar talablariga to'liq rioya qilinmasligi.

Mazkur holatlar korxonalarda mehnat haqi bo'yicha xarajatlarning noto'g'ri shakllanishiga hamda moliyaviy hisobotlarda xatoliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mehnat haqi hisobi va auditining zamonaviy metodologiyasini takomillashtirishda IAS 19 “Xodimlarga beriladigan imtiyozlar” standartining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Ushbu standart xodimlarga beriladigan qisqa muddatli va uzoq muddatli imtiyozlarni tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning yagona metodologik asoslarini belgilab beradi.

Quyidagi jadvalda korxonalarda mehnat haqi hisobi va auditining zamonaviy metodologik yo'nalishlari hamda ularning amaliy ahamiyati tizimlashtirildi.

#### 1-jadval

#### Mehnat haqi hisobi va auditining zamonaviy metodologik yo'nalishlari<sup>1</sup>

№	Zamonaviy metodologik yo'nalishlar	Mazmuni	Korxonalar faoliyatiga ta'siri
1	IAS 19 standartini joriy etish	Xodimlarga beriladigan imtiyozlarni xalqaro standartlar	Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligi ta'minlanadi

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

		asosida hisobga olish	
2	Avtomatlashtirilgan hisob tizimlari	“IC”, ERP va elektron tabel tizimlarini qo'llash	Hisob-kitoblarning aniqligi va tezkorligi oshadi
3	Elektron hujjat aylanishi	Mehnatga oid hujjatlarni raqamli shaklda yuritish	Hujjatlar bilan ishlash samaradorligi ortadi
4	Ichki audit tizimini rivojlantirish	Ish haqi operatsiyalarini muntazam nazorat qilish	Moliyaviy intizom mustahkamlanadi
5	Sun'iy intellekt asosidagi monitoring	Ish haqi hisobidagi xatolarni avtomatik aniqlash	Audit risklari kamayadi
6	Real vaqt rejimida nazorat	Onlayn nazorat mexanizmlarini joriy etish	Operativ boshqaruv imkoniyati kengayadi

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy metodologik yondashuvlar korxonalarda mehnat haqi hisobi va auditing shaffofligi hamda samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

## 2-jadval

### Mehnat haqi auditing zamonaviy bosqichlari<sup>2</sup>

Bosqichlar	Amalga oshiriladigan ishlar	Audit natijasi
1-bosqich	Mehnat shartnomalarini tekshirish	Xodimlar bilan munosabatlarning qonuniyligi aniqlanadi
2-bosqich	Ish vaqti hisobi auditini o'tkazish	Ishlangan vaqtning haqqoniyligi baholanadi
3-bosqich	Ish haqi hisoblash jarayonini tekshirish	Hisob-kitoblarning to'g'riligi aniqlanadi
4-bosqich	Soliqlar va ajratmalar auditini o'tkazish	Soliq hisob-kitoblarning qonuniyligi tekshiriladi
5-bosqich	Mehnat haqi bo'yicha kreditorlik qarzlarni tahlil qilish	Qarzdorlik holati baholanadi
6-bosqich	Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish	Hisobot ma'lumotlarining ishonchligi aniqlanadi

Yuqoridagi metodologik bosqichlarni amaliyotga joriy etish korxonalarda mehnat haqi auditingni sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, avtomatlashtirilgan hisob tizimlaridan foydalanayotgan korxonalarda mehnat haqi hisobidagi xatoliklar an'anaviy usulda hisob yurituvchi korxonalariga nisbatan sezilarli darajada kam uchraydi. Ayniqsa, biometrik identifikatsiya tizimlari va elektron tabel vositalari inson omili bilan bog'liq kamchiliklarni kamaytirib, ish vaqti hisobining haqqoniyligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida mehnat haqi auditini tashkil etish korxonalarda quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- mehnat haqi xarajatlarini optimallashtirish;
- noqonuniy to'lovlarning oldini olish;
- ichki nazorat samaradorligini oshirish;
- moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash;
- xalqaro investorlar uchun shaffof axborot muhitini yaratish.

Shu bois korxonalarda mehnat haqi hisobi va auditingni zamonaviy metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bugungi iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

#### Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mehnat haqi hisobi va auditingni zamonaviy metodologiyasini takomillashtirish korxonalarda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash hamda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotning raqamlashtirilishi, mehnat munosabatlarining murakkablashuvi va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish jarayonlari mehnat haqi hisobi va auditiga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, amaldagi mehnat haqi hisobi tizimida ayrim kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Jumladan, mehnat haqi xarajatlarini hisobga olishning ayrim jarayonlari to'liq avtomatlashtirilmaganligi, ichki nazorat tizimining barcha korxonalarda bir xil darajada rivojlanmaganligi hamda audit tekshiruvlarida riskga asoslangan yondashuvning yetarli darajada qo'llanilmayotganligi kuzatilmoqda. Bu holatlar mehnat haqi hisobida xatoliklar yuzaga kelishiga va moliyaviy hisobotlarning ishonchligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot davomida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan IAS 19 "Employee Benefits" hamda xalqaro audit standartlari talablarini amaliyotga keng joriy etish mehnat haqi hisobining shaffofligi va aniqligini oshirishi asoslandi. Shuningdek, ERP, HRM va boshqa raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish hisob-kitob jarayonlarini optimallashtirishi, inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirishi va audit samaradorligini oshirishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, mehnat haqi hisobi va auditingni zamonaviy metodologiyasini rivojlantirish korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish va investorlar uchun ishonchli moliyaviy axborot bazasini yaratishga xizmat qiladi.

#### Takliflar

Korxonalarda mehnat haqi hisobini yuritishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, ayniqsa IAS 19 "Employee Benefits" talablarini to'liq joriy etish va ularga mos hisob siyosatini shakllantirish zarur.

Mehnat haqi auditini tashkil etishda xalqaro audit standartlari asosida riskga yo'naltirilgan audit metodologiyasidan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Ish haqi hisob-kitoblarni avtomatlashtirish maqsadida ERP, HRM va Payroll tizimlarini joriy etish hamda ularni korxonaning buxgalteriya va soliq tizimlari bilan integratsiyalash tavsiya etiladi.

Korxonalarda ichki nazorat tizimini kuchaytirish, ayniqsa ish vaqtini hisobga olish, mukofotlar tayinlash va qo'shimcha to'lovlarni rasmiylashtirish jarayonlari ustidan muntazam monitoring o'rnatish lozim.

Mehnat haqi bilan bog'liq operatsiyalarni tekshirishda ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish va ularning mustaqilligini ta'minlash zarur.

Mehnat haqi hisobini yurituvchi buxgalterlar va auditorlarning xalqaro standartlar bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish, professional sertifikatlash dasturlarida ishtirok etishini rag'batlantirish maqsadga muvofiq.

Mehnat haqi xarajatlarini rejalashtirish va nazorat qilish tizimiga boshqaruv hisobi elementlarini, jumladan budjetlashtirish va samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi.

Mehnat haqi hisobi va auditida sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili (data analytics) va real vaqt rejimida monitoring qilish texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish lozim.

Mehnat haqi hisobi va auditiga oid milliy me'yoriy-huquqiy bazani xalqaro standartlar talablariga yanada yaqinlashtirish hamda bu boradagi metodik tavsiyalarni takomillashtirish zarur.

Korxonalarda mehnat haqi xarajatlarining samaradorligini baholash uchun muntazam iqtisodiy tahlil o'tkazish va uning natijalaridan strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, mehnat haqi hisobi va auditingni zamonaviy metodologiyasini takomillashtirish xalqaro standartlar, raqamli texnologiyalar va samarali nazorat mexanizmlarini uyg'unlashtirish orqali korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. London, 2024.
2. IAS 19 – Employee Benefits. International Accounting Standards Board (IASB), 2023.
3. Deloitte. Global Payroll Transformation Survey Report. 2024.
4. International Federation of Accountants (IFAC). ISA 315 (Revised) va ISA 500. New York, 2023.
5. Arens A., Elder R., Beasley M. Auditing and Assurance Services. 18th Edition. Pearson Education, 2023.

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

6. PwC. Digital Audit and Payroll Risk Management Report. 2024.
7. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni va unga oid normativ hujjatlar, 2024.
8. Hilton R., Platt D. Managerial Accounting: Creating Value in a Dynamic Business Environment. McGraw-Hill, 2023.
9. KPMG. Payroll Accounting and Internal Control Practices Guide. 2024.
10. Kuldashv Jahongir Qamariddinovich. (2026). O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari. Insurance market of Uzbekistan, 3(2), 67–70. [https://doi.org/10.55439/INS/vol3\\_iss2/388](https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss2/388)